
Xurshid XO‘JAYEV

**TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY IQTISODIYOTGA JALB
JALB QILISH KO‘LAMINI KENGAYTIRISH**

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish, respublika eksporti hajmini 30 mlrd. AQSh dollariga yetkazish milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan [1].

Bu esa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish ko‘lamini kengaytirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tayanch so‘zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, investitsiya siyosati, asosiy kapital, investitsiya faoliyati, investitsiya loyihasi, investitsiya resurslari, investitsiya faoliyati, valyuta zaxiralari.

**EXPANDING THE SCOPE OF ATTRACTING FOREIGN DIRECT
INVESTMENTS TO THE NATIONAL ECONOMY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN**

Abstract. In the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 of January 28, 2022, further improvement of the investment environment in the country and increasing its attractiveness, attracting 120 billion US dollars, including 70 billion dollars of foreign investments in the next five years taking measures, increasing the export volume of the republic to 30 bln. Conversion to the US dollar is recognized as one of the necessary conditions for rapid development of the national economy and maintaining high economic growth rates [1].

This creates the need to expand the scale of attracting foreign direct investments to the country's economy.

Key words: Investment policy, fixed capital, investment activity, investment project, investment resources, investment activity, foreign exchange reserves, account surplus.

Kirish

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, ular xususan, real sektorga zamonaviy

texnika va texnologiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Respublikamizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4200 dan ortiq korxonalar tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3 mlrddan ko'proq, asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmogda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublikamiz iqtisodiyoti barqarorligi va puxtaligiga, uni rivojlanish istiqbollari qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi [2].

Shu asnoda, yurtimizda investitsion faoliyatni tartibga soluvchi, xorijiy investorlarning haq-huquqlarini, mulkini himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinganki, mazkur qonun normalari mamlakatimizda investitsiya faoliyati va uning ishtirokchilarining huquqiy himoyasini ta'minlab kelmoqda. Mamlakatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 10 aprel kuni xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarga imtiyoz va kafolatlar yaratishga qaratilgan yana bir hujjat imzolandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 4434-sonli Farmoni qabul qilinib, ushbu Farmonga binoan, ilovaga muvofiq xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun keng ko'lamdagi kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar tizimi yaratildi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

J.M.Keynsning fikriga ko'ra, tadbirkorlar kapitalning marjinal samaradorligi kreditning foiz stavkasiga tenglashgunga qadar investitsiyani amalga oshiraveradilar. Bunday sharoitda umumiy daromadni o'sishi investitsiyani o'sishiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli, davlat muomaladagi pul miqdorini o'zgartirish yo'li bilan daromadlarning o'sish sur'atiga ta'sir etish imkoniyatiga ega [4].

J.Tobinning fikriga ko'ra, hukumatning pul-kredit va soliq-budjet siyosatini ma'lum turdagi aktivlarni xususiy sektorga taklifi sifatida qarash lozim. Xususiy sektorning ushbu taklifga munosabatini esa, aktivlarga bo'lgan talabning tarkibini, ularning daromadlilikiga ko'ra, o'zgarishi sifatida qarash zarur [5].

G.Menkyuning ilmiy xulosasiga ko'ra, davlatning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etishi zaruriyat hisoblanadi. Ushbu ta'sir quyidagi yo'llar vositasida amalga amalga oshirilishi lozim:

- jamg'armalar va investitsiyalarni rag'batlantirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish;
- mulk huquqiga rioya qilinishi va siyosiy barqarorlikni ta'minlash;

- savdo erkinligini ta'minlash;
- tadqiqotlar va yangi texnologiyalar joriy qilinishini qo'llab-quvvatlash;
- aholi soni o'sishini nazorat qilish [6].

R.Xarrodning fikriga ko'ra, davlat tomonidan chetdan kirib keladigan investitsiyalarini qo'llab-quvvatlanishi va buning natijasida tadbirkorlar kelgusida amalga oshiriladigan o'sha oldinga intilishning umumiy sur'ati tadbirkorlarda davom ettirish va shu tariqa yanada oldindan intilish kayfiyatini saqlab qoladi [7].

U.F. Sharp va boshqalar investitsiyalarni kelajakdagi boylikka erishish (ehtimol noaniq) uchun bugungi, hozirgi muayyan boylikdan voz kechish tarzida ta'riflaydilar. Investitsiyalash atamasi mazmunini «kelajakda foyda olish yo'lida bugun pul bilan xayrlashish»da ko'radi [8].

F.Mishkinning ilmiy izlanishlari natijasida shakllantirilgan xulosalariga ko'ra, xorijiy investitsiyalar real sektorni rivojlantirishga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir pullar taklifining iqtisodiy faollikka ta'sirida yaqqol namoyon bo'ladi [9].

Fikrimizcha, F.Mishkinning ushbu xulosasi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa, 2008 yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin taraqqiy etgan mamlakatlarda monetar siyosatga iqtisodiyotni retsessiya holatidan chiqaruvchi asosiy omil sifatida qaralayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida "Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalada yetti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi" deb ta'kidlab o'tgan [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, moliyaviy tahlil usullari va statistik usullardan hamda ekspert baholash usulidan foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda xalqaro moliya-kredit tashkilotlari ekspertlarining empirik tadqiqotlari natijalaridan foydalanilgan. Natijalar Iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari ko'rsatadiki, birinchidan, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samarali shakli hisoblanadi [11];

ikkinchidan, mamlakatning geografik joylashuvi xorijiy investitsiyalar oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [12];

uchinchidan, mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlanganligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [13].

Jahon tajribasi ko'rsatadiki:

*xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotga turlicha shaklda, ya'ni tadbirkorlikning bevosita investitsiyasi shaklida yoki kredit, moliyaviy investitsiya shakllarida qo'yilishi mumkin;

*rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bunday tashqi ta'sir yuqori darajadiligini isbotlash uchun yetarli emas, lekin tajribaga asoslangan dalillar taxmincha xorijiy investitsiyalar ishsizlikni kamaytirishga uncha katta ta'sir qilmaydi;

*xorijiy kompaniyalar ishga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishadi;

*tarmoqlarning ko'pligi investorlar uchun o'z sarmoyasini diversifikarsiyalash imkonini beradi;

*hozirgi davrda eng ko'p xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar informatsion texnologiyalar va dasturiy ta'minot sohasiga kiritilgan bo'lsa, keyingi o'rinni mashinasozlik egallaydi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi beshyilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi va unga erishi uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

*investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish;

*2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish;

*davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish;

*respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish;

*Surxondaryo viloyatida «Investorlarga ko'mak markazi», Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan «Biznesga ko'maklashish markazi» va Toshkent shahrida «Ilg'or loyihalar va injiniring markazi» va har bir tumanda «Innovatsiya va texnologiya markazlari» tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish;

*Toshkent shahrida har yili «Toshkent xalqaro investitsiya forumi»ni o‘tkazib borish [14].

Hususan 2023 yilda Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasi:

2023 yilning 27-28 aprel kunlari Toshkent shahrida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, MDH, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Misr, Yaqin Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan 2,5 mingdan ortiq vakillar ishtirokida ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi (TXIF) bo‘lib o‘tdi. Forum doirasida yetakchi xalqaro tahlilchilar va ekspertlar, shuningdek, xorijiy kompaniyalar rahbarlari ishtirokida 32 ta tadbir, jumladan, 24 ta panel sessiyasi, 5 ta davra suhbatlari va 3 ta biznes nonushta tashkil etildi.

Ikkinchi Toshkent Xalqaro Investitsiya Forumini o‘tkazish jarayonida jami respublika bo‘yicha - 11,1 mlrd dollarlik 696 ta xujjat imzolandi. Hozirgi kunga qadar mazkur loyihalar yuzasidan 967,0 mln dollar mablag‘lar o‘zlashtirildi.

Imzolangan xujjatlarning asosiy qismi yirik kompaniyalar, xususan, «Gedjoba Investment Limited» (XXR), «Chengiz Enerdji» (Turkiya), «Al Bovani» va «Sajiko» (SAQ), «Lasselsberger Grup» (Avstriya), «Devan Sement» (Pokistan), «Mareven Fud Xolding» (Vetnam), «Kommersbank», «KFV IPEKS-Bank» va «Landesbank» (Germaniya), «Kadila Farmasyutikalz» (Xindiston) va boshqalarga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumot uchun: Jami tarmoqlar bo‘yicha - 6 038 mln dollarlik 42 ta xujjat, hududlar bo‘yicha - 3 122 mln dollarlik 122 ta xujjat, eksport shartnomalari - 1 903,2 mln dollarlik 532 ta xujjat hamda energetika va infratuzilma sohalarida - 3 700 mln dollarlik 6 ta xujjat imzolangan.


Masalan, 2023 yilning yanvar - noyabr oylarida:

“Rieter Machine Works LTD” (Shveysariya) “Ip-kalava ishlab chiqarish” 25 mln dollarlik loyihasi bo‘yicha 7,4 mln dollar o‘zlashtirildi. “Anhui Conch Cement Co LTD Zhejiang Shangfeng Building Materials Co LTD” (XXR) “Sement ishlab chiqarishni tashkil etish” 250 mln dollarlik loyihasi bo‘yicha 221,4 mln dollar, “Global commercial dis ticaret ihracat sanayu limited sirkati” (Turkiya) “Qurilish materiallari ishlab chiqarish” 76 mln dollarlik loyihasi bo‘yicha 4,9 mln dollar

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra:

*agar O‘zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo‘lgan qonunchilik chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e’tiboran o‘n yil mobaynida qo‘llaniladi. Investor o‘zining investitsiya qilish shart-sharoitlarini yaxshilaydigan yangi qonunchilik qoidalarini o‘z xohishiga ko‘ra qo‘llash huquqiga ega;

*repatriatsiya tartib-taomilini murakkablashtiruvchi yoki investorning chet elga o'tkaziladigan daromadlari (foydas) miqdorini kamaytiruvchi



qo'shimcha talablar joriy etilganda, bundan investorning mablag'larini repatriatsiya qilishni chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona to'lovga layoqatsiz va bankrot bo'lgan yoki kreditorlarning huquqlari buzilgan, jismoniy shaxs bo'lgan chet ellik investor tomonidan jinoiy qilmishlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilgan hollarda yoxud sud yoki arbitraj qaroriga muvofiq shunday repatriatsiya qilishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda qonunchilik hujjatlarini investorlarni kamsitmaydigan tarzda qo'llash shartlari asosida to'xtatib turish mustasno [15].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xom-ashyo va uskunalarni import qilish va

tayyor mahsulotlarni eksport qilishda soliq imtiyozlarining berilganligi va bojxona nazoratini minimallashtirilganligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga kuchli turtki beradi. Maxsus erkin iqtisodiy zonalarda maxsus soliq va bojxona rejimi o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida 819 ta maxsus iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib, ularda 5196 ta korxona va

tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan: 22 ta maxsus (erkin) iqtisodiy zonalar (keyingi o'rinlarda – MIZ), 323 ta kichik sanoat zonasi (keyingi o'rinlarda – KSZ), 24 ta texnopark hamda 450 ta klasterlar (keyingi o'rinlarda – klaster) mavjud bo'lib, ularning tarkibidagi korxona va tashkilotlar soni MIZda 752 tani, KSZda 2488 tani, texnoparklarda 1501 tani va klasterlarda 455 tani tashkil etdi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi 22 ta maxsus erkin iqtisodiy zona bo'lib, ular 8,8 ming gektar yer maydoniga ega. 2023 yilning 9 oyida holatiga ko'ra, erkin iqtisodiy hududlar tomonidan 27 trln. 545 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Shundan 391 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilingan.

Ushbu ko'rsatkichlar, O'zbekistonning eksport potentsialining o'sishiga, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi va ulardagi mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'nalishidagi faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni ko'rsatadi. Bu esa, mamlakatning iqtisodiy darajasini oshirish, ish o'rinlari yaratish va davlat budjitisiga moliyaviy manfaat kiritish yo'nalishida yangi imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar va shu jumladan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, trln. So'm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmi 2019-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish maqsadida jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 2020-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni rag'batlantirishga qaratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi. Natijada, respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori, 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 37 trln. so'mni tashkil etdi. 2016-2021 yillarda jalb qilingan mablag'lar ulushi keskin o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2016 yildagi 45.6% dan 2019 yilda 70.7% ulushgacha oshgan jalb qilingan mablag'lar ulushi 2020 yilda koronavirus inqirozi sababli 65.4% gacha tushdi, lekin ushbu ko'rsatkich ahamiyatli darajada saqlanib qoldi. Davlat budjeti mablag'lari ulushi ham ushbu davrda biroz oshdi, lekin salmoqli bo'lmagan ulush saqlanib qoldi va o'rtacha 5.8% lik darajadagi ulushga ega bo'ldi. Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi 2018 yilgacha o'sishda davom etdida ushbu ko'rsatkich 17.8% gacha yetdi, so'ngi ikki yilda esa ushbu ulush biroz kamaydi. Umuman bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining

investitsiyalarni moliyalashtirishdagi ulushi 2016-2020 yillarda oʻrtacha 13.8% lik ulushga ega boʻldi [16].

Oʻzbekiston Respublikasida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmida toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning ulushi, foizda 22-rasm maʼlumotlaridan koʻrinadiki, respublikamizda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmida toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning ulushi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega boʻlgan. Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlgan dolzarb muammolardan yana biri—bu investitsiya loyihalari bilan bogʻliq boʻlgan risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirmaganligidir. Investitsiya loyihalari bilan bogʻliq boʻlgan risklarni boshqarishni takomillashtirmaganligi tufayli mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilgan qator investitsion loyihalar oʻzini oqlamadi. Ularning oʻzini oqlamasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: —korxonalar xorijdan keltiriligidan xom-ashyolarga oʻta bogʻliqligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotga talab yoʻqligi («Kaolin», «Yantak-Brit» qoʻshma korxonalari», «Oxangaronstroyplast» XJ);

—korxonalarning loyihada belgilangan quvvatda ishlamasligi («Pap Fen» qoʻshma korxonasi 80% quvvatda, «Asnam-tekstil» qoʻshma korxonasi 60%, «Kosonsoy-Tekmen» qoʻshma korxonasi 15% quvvatda, «Ohangaronstroyplast» HJ 10% quvvatda ishlamoqda);

—ayrim korxonalarning xom-ashyo bazasi bilan taʼminlanmaganligi (Xorazm shakar zavodi, Fargʻona furan birikmalari zavodi, Fargʻona kimyoviy tolalar zavodi);

—qurilgan mehmonxonalarning bor yoʻgʻi 30-35 foiz yuklamada ishlayotganligi («Shodlik», «Sheraton» mehmonxonalari);

—qoʻshma korxona ochilishi vaqtida xorijiy taʼsischilar tomonidan ishlab chiqarilishi moʻljallanayotgan mahsulotni xorijga sotish yoki ularni sotib olish majburiyatini roʻyxatdan oʻtkazilgan, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori qabul qilingan, bankka taqdim etiladigan Texnik iqtisodiy asoslarda mahsulotlarni xorijga erkin almashinadigan valyutada sotilishini taʼminlash belgilangan), ishlab chiqarish boshlangandan soʻng esa bu majburiyatlar bajarilmasligi;

Xususan, «Kaolin» qoʻshma korxonasining taʼsischilaridan biri «Kulʼkoni» firmasiga ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maʼsuliyligi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorida va korxonaning ustavida koʻrsatilgan, lekin u korxona oʻz badalini ham qoʻymagan holda mahsulotni sotish majburiyatini ham bajarmagan [17].

Xulosa va takliflar

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

*mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish yo'li bilan kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rishmilliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi;

* xorijiy investitsiyalarni jalb etish davlatning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etish instrumentlaridan biri hisoblanadi;

*respublikamizda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmi 2019-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

*respublikamizda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish maqsadida jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 2020-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

*respublikamizda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Fikrimizcha, O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamini kengaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini oshirish uchun, birinchidan, milliy valyutaning nominal almashuv kursining barqarorligini ta'minlash lozim; ikkinchidan, davlat byudjeti defitsitining nominal yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,0 foizdan oshmasligini ta'minlash choralari ko'rish zarur; uchinchidan, davlat byudjeti defitsitini noinflyatsion manbalar hisobidan qoplash yo'li bilan milliy valyutadagi pul massasining o'sish sur'atlarini pasaytirish orqali inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichiga erishishni ta'minlash lozim; to'rtinchidan, investitsiya loyihalarini o'zini oqlamasligi natijasida yuzaga kelayotgan talab inflyatsiyasi oshishiga barham berish kerak.

2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonidagi risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

*valyuta riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish maqsadida forward valyuta bitimlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish va valyuta riskini xedjirlashning klassik usulini, selektiv va tarmoqlararo usulini amaliyotga joriy qilish kerak;

*marketing risklarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish uchun marketing tadqiqotlarining sifatini oshirish orqali tovarlarga bo'lgan talabni, moliyalashtirish manbalarining yetarliligini, aylama mablag'lar zaxiralarini shakllantirish imkoniyatlarini, raqobat muhitini, asosiy vositalarning eskirish holatini baholash aniqligini oshirish lozim;

*loyiha tashabbuskori va loyihani amalga oshirish risklarini boshqarish amaliyotini kamaytirish maqsadida,

birinchidan, aksiyadorlarning qo'shimcha moliyalashtirish bo'yicha kafolatlarini olish kerak;

ikkinchidan, loyihani amalga oshirishning har bir bosqichida grafikka rioya qilinishini doimiy monitoring qilib borish zarur;

uchinchidan, loyihani moliyalashtirish manbalari hajmida loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari ulushini oshirish lozim;

to'rtinchidan, loyihani banklarning kontokorrent kreditlari hisobidan moliyalashtirishga e'tiborni kuchaytirish kerak; beshinchidan, aylanma mablag'larni moliyalashtirish imkoniyatlarini to'g'ri baholash zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.

2. Investitsiyalar//www.stat.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4434-sonli Farmoni//www.lex.uz

4. Keyns Dj. M. Общaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. Per. s angl. –M.: Gelios ARV, 2012. –352 s.

5. Tobin Dj. Denejnaya politika i ekonomicheskoy rost. –M.: Librokom, 2010. –S. 111-112.

6. Menkyu N. G. Printsipy makroekonomiki. 4-ye izd. Per. s angl. –SPb.: Piter, 2009. –S. 201.

7. Xarrod R. K teorii ekonomicheskoy dinamiki. –M.: Direktmedia Publishing, 2008. –S. 122.

8. Sharp, U., Aleksander J. Investitsii. Per. s angl. –M.: Infra-M, 2003. –1028 s.

9. Mishkin F. S. Ekonomicheskaya teoriya deneg, bankovskogo dela i finansovykh rynkov. 7-ye izd. Per. s angl. –M.: OOO "I. D. Vilyams", 2013. –S. 734-735.

10. <http://parliament.gov.uz/uz/events/other/23320/11>. Ovchinnikova S. G. Zona svobodnogo predprinimatelstva. Uchebnik. –Sankt-Peterburg, 1996. –S. 12-16; Leusskiy A. Ekonomika zon svobodno gopred prinimatelstva. –Sankt-Peterburg, 1991. –S.

11. Smorodinskaya N. Svobodnye ekonomicheskie zony. Vestnik DVO RAN, 1993. –No 4.5. –S. 22.; Avdokushin Ye. F. Svobodnye (spesialnye)

ekonomicheskie зоны. Moskva: Finansy i statistika, 1993. –S. 27.; Komlev Yu. Svobodnyeekonomicheskie зоны: zarubejnyy opyt.-Alma-Ata, 1990. –S. 31.

12. Donghua, Chena Xin, Yub Zhou Zhangc, Foreign direct investment comovement and home country institutions Journal of Business Research Volume 95, February 2019, Pages 220-231.

13. E. Hernandez-Cata (2000), “Raising Growth and Investment in Sub-Saharan Africa: What Can Be Done?”, IMF Policy Discussion Paper, PDP/00/4.; L. 19 Servan (1996), “Irreversibility, Uncertainty and Private Investment: Analytical Issues and Some Lessons for Africa”, World Bank Working Paper.; N. Odenthal (2001), “FDI in Sub-Saharan Africa”, Technical Paper No. 173, OECD Development Centre.; J. Morisset (2000), “Foreign Direct Investment in Africa: Policies also Matter”, World Bank Working Paper.

14. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022 y., 03/22/775/0477-son; 31.12.2022 y., 03/22/812/1145-son.